

**RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA YOSHLAR ONGIDA
OILAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**Hamdamova Sitora Rustam qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti**

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda rivojlangan davlatlar, jumladan Yaponiya, Shvetsiya, Kanada va Finlyandiya tajribasi asosida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi globalizatsiya va texnogen sivilizatsiya sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida oila institutining ahamiyatini kuchaytirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimi, oila pedagogikasi yutuqlari hamda emosional intellektni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarurligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: oilaviy qadriyatlar, globalizatsiya, texnogen sivilizatsiya, yoshlar ijtimoiylashuvi, oila pedagogikasi, emosional intellekt, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy kompetensiya, uzluksiz ta'lim, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данном исследовании научно проанализированы вопросы совершенствования системы формирования семейных ценностей в сознании молодежи на основе опыта развитых стран, в том числе Японии, Швеции, Канады и Финляндии. Актуальность исследования обусловлена необходимостью усиления роли института семьи в процессе социализации молодежи в условиях глобализации и техногенной цивилизации.

Ключевые слова: семейные ценности, глобализация, техногенная цивилизация, социализация молодежи, семейная педагогика, эмоциональный интеллект, педагогические технологии, социальная компетентность, непрерывное образование, инновационный подход. ключевые слова: семейные ценности, глобализация, техногенная цивилизация, социализация молодежи, семейная педагогика, эмоциональный интеллект, педагогические технологии, социальная компетентность, непрерывное образование, инновационный подход.



Abstract. This study scientifically analyzes the issues of improving the system of forming family values in the minds of young people based on the experience of developed countries, including Japan, Sweden, Canada, and Finland. The relevance of the study is explained by the need to strengthen the importance of the family institution in the socialization of young people in the context of globalization and technogenic civilization. The study revealed that the formation of family values in the minds of young people should be carried out in close connection with the continuous education system, the achievements of family pedagogy, and the development of emotional intelligence.

Keywords: family values, globalization, man-made civilization, youth socialization, family pedagogy, emotional intelligence, pedagogical technologies, social competence, lifelong education, innovative approach.

Kirish. Jahon miqyosida globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda texnogen sivilizatsiyaning izchil rivojlanishi natijasida jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur o'zgarishlar sharoitida inson kapitalining sifati, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va qadriyatlar tizimi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lgan oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish hamda yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar, jumladan Yaponiya, Shvetsiya, Kanada va Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quvchilarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshiriladi. Ushbu mamlakatlarda oila institutining ijtimoiy ahamiyati yuqori baholanib, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida uning roli alohida e'tiborga olinadi.



Dolzarblik. Markaziy Osiyo hududida ham oilaviy qadriyatlar asrlar davomida milliy-madaniy an'analar asosida shakllanib, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Biroq globallashuv sharoitida yoshlar ongida qadriyatlar tizimining transformatsiyaga uchrashi, individualizmning kuchayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari yuzaga kelishi oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishni ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammo yechimida oila pedagogikasining nazariy va amaliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida emosional intellekt, kommunikativ kompetensiya va qadriyatlar tizimini shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Mavzu metodologiyasi. Jahon miqyosida texnogen sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi hamda globalizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida inson kapitaliga qo'yilayotgan zamonaviy talablar tizimi tubdan yangilanmoqda. Mazkur kontekstda yosh avlod ongida jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lgan oilani shaxsiy hayotning ustuvor qadriyati sifatida ongli ravishda anglash va uni hayotiy faoliyatda namoyon etish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim-tarbiya tizimining dolzarb va strategik vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.¹

Oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonida mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan talaba-yoshlar alohida ijtimoiy-demografik guruh sifatida yuqori salohiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiylashuvning faol subekti sifatida qadriyatlar tizimini qayta anglash va shakllantirish imkoniyatiga egadir.² Ayniqsa, yoshlik davrining muhim psixologik yutug'i sifatida individning o'z ichki dunyosini anglash, shaxsiy identifikatsiyasini shakllantirish hamda hayotiy maqsadlarini belgilash jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi.³

Shuningdek, shaxsning ehtiyojlar tizimida oila xavfsizlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mehr-muhabbat manbai sifatida markaziy o'rin egallaydi, bu esa uning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi (Abraham Maslow). Shu bilan birga,

¹ UNESCO. (2015). *Rethinking education: Towards a global common good?* Paris: UNESCO Publishing

² UNICEF. (2018). *Adolescents, youth and development: Strategy overview.* New York: UNICEF.

³ Erik Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis.* New York, NY: W. W. Norton & Company.



oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, empatiya va samarali muloqotga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda emosional intellekt muhim rol o'ynaydi.⁴

Natijada, zamonaviy ta'lim tizimida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish masalasi nafaqat an'anaviy pedagogik yondashuvlar, balki innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish orqali kompleks tarzda amalga oshirilishi zarur. Bu esa yoshlarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish, ularning shaxsiy kamolotini ta'minlash hamda barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.⁵

Ayniqsa, mustaqil hayotga kirib borish bosqichida turgan talaba-yoshlar ijtimoiylashuvning eng faol subekti sifatida oilaviy qadriyatlarni qayta talqin qilish, ularni zamonaviy sivilizatsion talablarga mos ravishda transformatsiya qilish hamda shaxsiy hayot strategiyasiga integratsiya etish imkoniyatiga ega bo'lgan istiqbolli ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Chunki yoshlik davrining muhim ijtimoiy-psixologik yutuqi - bu individning o'z "Men" konsepsiyasini chuqur anglash, ichki dunyosini refleksiv tahlil qilish hamda shaxsiy identifikatsiya asosida barqaror hayotiy qadriyatlar tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Shu nuqtayi nazardan, oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni nafaqat an'anaviy tarbiyaviy yondashuvlar, balki innovatsion pedagogik texnologiyalar, madaniyatlararo kompetensiyalar va emosional intellektni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi zarur. Zero, oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, empatiya va konstruktiv muloqotga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish yoshlarning shaxsiy sifatlarini ijobiy transformatsiya qilish, ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish hamda barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan Yaponiya, Shvetsiya, Kanada, Finlyandiya, Chexiya hamda Hindiston kabi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oilaviy qadriyatlar tarixiy-evolutsion jarayonda jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy uyg'unlashgan holda rivojlanib borgan va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo hududida ham oilaviy qadriyatlar milliy-madaniy an'analar negizida shakllanib, ijtimoiy hayotning muhim institutsional komponenti sifatida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mazkur mamlakatlar ta'lim tizimi tahlili shuni anglatadiki, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida o'quvchilarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshiriladi. Bu jarayonda

⁴ Daniel Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ*. New York, NY: Bantam Books.

⁵ OECD. (2015). *Skills for social progress: The power of social and emotional skills*. Paris: OECD Publishing.



shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, uning qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar doirasida oila pedagogikasi fanining nazariy va amaliy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning innovatsion metodlarini interpretatsiya qilish hamda ta'lim jarayoniga integratsiya etish orqali o'quvchilarning ijtimoiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi va amaliy faoliyatda namoyon etishiga erishilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Natijada, globallashtirish sharoitida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish masalasi nafaqat ijtimoiy-pedagogik muammo, balki strategik ahamiyatga ega bo'lgan kompleks ilmiy yo'nalish sifatida namoyon bo'lib, u ta'lim oluvchilarning shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy moslashuvi va barkamol inson sifatida shakllanishida muhim determinantlardan biri hisoblanadi.

Mavzu doirasidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi orqali yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlari quyidagicha ko'rinishni o'zida aks ettiradi (1-jadvalga qarang).

Ta'lim va oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy xususiyatlar

Xususiyatlar	Rivojlangan davlatlar	Markaziy Osiyo/O'zbekiston
Integratsiya darajasi	Ta'lim jarayoniga oilaviy qadriyatlar tizimi uzviy integratsiya qilingan, har bir bosqichda konkret pedagogik maqsadlar	Ta'lim tizimida oilaviy qadriyatlar ko'proq an'anaviy tarbiyaviy shakllarda ifodalanadi, uzviy tizimli integratsiya yetarli emas
Innovatsion yondashuv	Projektlar, rolli o'yinlar, interaktiv metodlar, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish	Asosan nazariy ma'ruzalar, tarbiyaviy suhbatlar, an'anaviy metodlar
Psixologik komponent	Emosional intellekt, shaxsiy identifikatsiya, kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi	Psixologik tayyorgarlik chegaralangan, shaxsiy identifikatsiya va refleksiv faoliyat kam o'rganilgan
Qadriyatlarni baholash	O'quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi va oilaga munosabatlari muntazam baholanadi	Baholash tizimi rasmiy va akademik ko'rsatkichlarga ko'proq qaratilgan, qadriyatlarni rivojlantirish natijalari kam kuzatiladi
Ijtimoiy muhit bilan bog'lanish	Maktab, ota-ona, jamiyat va hukumat dasturlari birlashtirilgan	Oila va maktab faoliyati ko'pincha alohida olib boriladi, jamiyat bilan integratsiya cheklangan

Rivojlangan davlatlarda yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni shakllantirish uzluksiz, tizimli va integratsiyalashgan bo'lib, pedagogik innovatsiyalar va psixologik komponentlar keng qo'llaniladi. Markaziy Osiyo va O'zbekiston kontekstida oilaviy qadriyatlar an'anaviy pedagogik shakllarda o'rgatiladi, tizimli integratsiya va zamonaviy yondashuvlar yetarli emas. Rivojlangan davlatlar tajribasi yoshlarning shaxsiy identifikatsiyasini shakllantirish, ijtimoiy moslashuvchanlik va barkamol avlodni tarbiyalashda samarali ekanligi ko'rsatildi. Milliy ta'lim tizimiga ushbu tajribani moslashtirish orqali:

- o‘quvchilarda oilaviy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish,
- innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish,
- ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Takliflar va istiqbollari: Oila pedagogikasi fanining innovatsion metodlarini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish. Emosional intellekt va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv darslar va loyihalar joriy etish. Rivojlangan davlatlarning monitoring va baholash tizimlarini o‘zlashtirish orqali o‘quvchilarni oilaviy qadriyatlarni amaliy hayotda qo‘llashga yo‘naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslow, A. H. (1943). *A theory of human motivation*. *Psychological Review*, 50(4), 370–396. <https://doi.org/10.1037/h0054346>
2. Giddens, A. (2009). *Sociology* (6th ed.). Polity Press.
3. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human development: Experiments by nature and design*. Harvard University Press.
4. OECD. (2021). *Education at a glance 2021: OECD indicators*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/eag-2021-en>
5. UNESCO. (2020). *Global education monitoring report 2020: Inclusion and education: All means all*. UNESCO Publishing.
6. Darling-Hammond, L., Flook, L., Cook-Harvey, C., Barron, B., & Osher, D. (2020). Implications for educational practice of the science of learning and development. *Applied Developmental Science*, 24(2), 97–140. <https://doi.org/10.1080/10888691.2018.1537791>
7. UNICEF. (2019). *The state of the world’s children 2019: Children, food and nutrition*. UNICEF.
8. Cox, M., & Dyson, A. (2010). *Key issues in education and social policy*. Routledge.
9. Steinberg, L. (2014). *Age of opportunity: Lessons from the new science of adolescence*. Houghton Mifflin Harcourt.
10. Долгова, Т. В. (2018). Формирование семейных ценностей у молодежи: педагогический аспект. *Вестник педагогических наук*, 3(45), 15–22.
11. Хусейн, Ш. (2020). Инновационные технологии в воспитании семейных ценностей. *Современная педагогика*, 12, 34–42.
12. Кузнецова, Н. В., & Петрова, Е. А. (2017). Развитие эмоционального интеллекта в образовательной среде. *Психология образования*, 6, 55–63.
13. Tudge, J., Mckrova, I., Hatfield, B., & Karnik, R. (2009). Uses and misuses of Bronfenbrenner’s bioecological theory of human development. *Journal of Family Theory & Review*, 1(4), 198–210. <https://doi.org/10.1111/j.1756-2589.2009.00026.x>